




Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-sentabr)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da**



B -Tog'-kon sanoati ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqaradigan sanoat

D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimiz korxonalaridan 46 705,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 108,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 84,1 % ni tashkil etdi.





Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda - 90,5 % ga va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 41,0 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 8,9 % ga hamda , tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 7,0 % ga o'sishiga xizmat qildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 630,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,9 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39 298,6 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,1 % ini tashkil etdi.







Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2019- yil yanvar-sentabr oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,3 % (6,6 %), o'rta-quyi texnologiyali - 87,7 % (84,8 %) va quyi texnologiyalisi - 6,6 % (8,3 %) ni tashkil etdi.

**2019- yil
yanvar-sentabr**



**2020- yil
yanvar-sentabr**



yuqori texnologiyali

quyi texnologiyali

o'rta-yuqori texnologiyali

o'rta-quyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 5,2 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 96,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 79,6 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 104,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,4 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 88,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,0 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 93,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,0 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 92,4 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	2 750,0	2753,0	100,1
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, tonna.	44 108,0	40 429,0	91,7
Ammoniy nitrat, ming tonna azot	182,2	133,4	73,2
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna.	13,6	54,2	398,0
Kislород, ming m ³ .	114,7	146,7	128,0
Temir beton, tonna.	36 585,0	16 855,0	46,1
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	438,2	338,9	77,3
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna.	870,12	720,7	82,8

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, portlandsement (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 100,1%), hamda kaustik soda mahsulotlarida (3,9 m) o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat mahsuloti (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan- 73,2 %) ishlab chiqarish sanoatida pasayishi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 649,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 41,0 % ga oshganligi kuzatildi.






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	6 875,2	8 598,1	1 722,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 722,7	2 599,9	-122,8



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 126,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.




Yirik sanoat korxonalaridan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasidagi bajarilgan ishlar hajmi

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	10 713,9	27 761,4	17 047,5
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	22,0	9,3	-12,7
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	23 239,0	44 026,6	20 787,6



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 683,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-sentabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 60,7 % dan 60,4 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino-arog mahsulotlari va pivo 0,4 % (2019- yil yanvar-sentabr oylarida 0,02 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 31,3 % ni, shuningdek, Karmana tumani 16,9 % ni, Xatirchi tumani 14,2 % ni, Qiziltepa tumani 12,1 % ni hamda Navbahor tumani 6,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (104,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahri (106,8 %) hamda Karmana tumanida (105,8 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	2 683,5	100,0	104,0
Navoiy sh.	841,1	31,3	106,8
Zarafshon sh.	168,0	6,3	100,5
<i>tumanlar</i>			
Karmana	453,2	16,9	105,8
Konimex	62,1	2,3	104,1
Qiziltepa	323,9	12,1	104,0
Navbahor	182,3	6,8	100,1
Nurota	162,7	6,1	104,2
Tomdi	25,9	1,0	103,7
Uchquduq	82,1	3,0	101,7
Xatirchi	382,2	14,2	100,2

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 21,9 %, shuningdek, Xatirchi tumani 18,4 % ni, Qiziltepa tumani 18,3 % ni, Karmana tumani 11,7 % ni hamda Navbahor tumani 8,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qiziltepa tumanida (115,1) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	1 063,3	100,0	104,9
Navoiy sh.	232,7	21,9	109,1
Zarafshon sh.	90,8	8,5	107,8
<i>tumanlar</i>			
Karmana	124,8	11,7	98,2
Konimex	32,3	3,0	99,4
Qiziltepa	194,1	18,3	115,1
Navbahor	94,7	8,9	101,2
Nurota	41,3	3,9	97,8
Tomdi	12,4	1,2	93,8
Uchquduq	44,2	4,2	100,2
Xatirchi	196,0	18,4	100,8

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 37,6 %, shuningdek, Karmana tumani 20,3 % ni, Xatirchi tumani 11,5 % ni, Qiziltepa tumani 8,0 % ni hamda Nurota tumani 7,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (103,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida (114,6 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	1 620,2	100,0	103,5
Navoiy sh.	608,4	37,6	106,0
Zarafshon sh.	77,2	4,8	93,1
<i>tumanlar</i>			
Karmana	328,4	20,3	109,0
Konimex	29,8	1,8	109,7
Qiziltepa	129,8	8,0	90,8
Navbahor	87,6	5,4	98,9
Nurota	121,4	7,5	106,6
Tomdi	13,5	0,8	114,6
Uchquduq	37,9	2,3	103,5
Xatirchi	186,2	11,5	99,6



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 009,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.




Navoiy viloyati hududlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-sentabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	46 705,6	108,9
Navoiy sh.	39 473,3	110,7
Zarafshon sh.	220,0	101,6
<i>tumanlar</i>		
Karmana	4 855,5	118,8
Konimex	273,6	104,0
Qiziltepa	801,0	106,7
Navbahor	369,4	106,1
Nurota	196,4	102,9
Tomdi	30,1	105,8
Uchquduq	93,5	102,2
Xatirchi	392,8	100,6

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (272 004,4 ming so'm), Karmana (38 391,5 ming so'm), Konimex (7 642,3 ming so'm) va Qiziltepa (5 250,5 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Navoiy shahrida - 5 796,1 ming so'mni, Karmana tumani - 3 583,8 ming so'mni, Uchquduq tumani - 2 194,7 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 2 123,0 ming so'mni, Xatirchi tumani - 1 910,1 ming so'mni va Zarafshon shahrida - 1 992,5 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Navoiy viloyati	46 556,6	2 674,9
Navoiy sh.	272 004,4	5 796,1
Zarafshon sh.	2 609,5	1 992,5
<i>tumanlar</i>		
Karmana	38 391,5	3 583,8
Konimex	7 642,3	1 733,6
Qiziltepa	5 250,5	2 123,0
Navbahor	3 253,2	1 605,4
Nurota	2 289,4	1 747,6
Tomdi	2 026,9	1 746,7
Uchquduq	2 500,6	2 194,7
Xatirchi	1 963,0	1 910,1



Navoiy viloyatining shaxar va tumanlarida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining viloyat kursatkichidan yuqori, Karmana tumanida (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 118,8 %) hamda Navoiy shahriga (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 110,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Navoiy shahrida (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,8 %), Karmana tumanida (105,8 %), Nurota tumanida (104,2 %) hamda Konimex tumanida (104,1 %) sezilarli darajada oshdi.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 917,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Nurota (99,4%), Xatirchi (98,7 %), Navbahor (68,0%) tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (82,1%) ni tashkil etdi.




Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Navoiy shahrida (1,5 %), Karmana (16,0 %), Konimex tumanlarida (25,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda
(2020- yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatimizda 3 245 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 703 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,7%) Navoiy shahriga, 525 tasi (16,2 %) Karmana tumaniga, 409 tasi (12,6 %) Xatirchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda
(2020- yil 1-oktabr holatiga ko'ra)




2020- yil yanvar-sentabr oyida viloyatimizda 754 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 163 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 21,6 %) Xatirchi tumanida, 126 tasi (16,7 %) Uchquduq tumanida, 100 tasi (13,3 %) Karmana tumanida, 84 tasi (11,1 %) Qiziltepa tumanida, 87 tasi (11,5 %) Navoiy shahrida hamda 72 tasi (9,5 %) Zarafshon shahrida tashkil etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish. Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 96 ta loyiha bo'yicha 473 249,9 mln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 120 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	110	96
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	14	23
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mln. so'm</i>	430 936,6	473 249,9
Eksportha qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>ming. AQSh dollar</i>	794,7	0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	9	120



**Navoiy viloyati statistika boshqarmasining
sanoat statistikasi bo'limi**

Tel.: (79) 223-33-29